



PEDAGOGIKA
5YOSH

373
H 80

R. X. NOSIROVA
M.D. ABDULLAEVA

MAKTABGACHA TA'LIMDA ME'YORIY ASOSLAR



373
H80

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
NOSIROVA RA'NO XAMIDOVNA
ABDULLAEVA MARYAMBIBI DJUMANIYAZOVNA

MAKTABGACHA TA'LIMDA ME'YORIY ASOSLAR
fanidan

DARSLIK

Ta'lim yo'nalishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lim

Chirchiq- 2021

«Malik print co» NASHRIYOTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

-43946/98-

Nosirova R.X., Abdullaeva M.D. / Maktabgacha ta'limda me'yoriy asoslar / Darslik. Chirchiq. «Malik print co», 2021. – 128 bet.

Mazkur darslikda “Maktabgacha ta'limda me'yoriy asoslar” fanining maqsadi, vazifalari, asosiy mavzulari, metodlari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, darslikda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazasini yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'z navbatida, maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir soha xodimi samarali ish faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun davlatimizda sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi va tartibli yuritishlari lozim.

Bugungi kunda mamlakatda barkamol avlodni tarbiyalash uchun davlatimiz rahbariyati tomonidan ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bu eng avvalo, ushbu hujjatlarda kelajak yoshlarini har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk hamda yurt ravnaqi uchun ulkan hissa qo'shadigan avlod etib tarbiyalash bosh maqsad etib belgilangandir. SHu bilan birga maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarning samarali ish faoliyatlarini olib borishlari uchun zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi yaratildi. Sohada samarali ish faoliyatini tashkil etish uchun eng avvalo, soha xodimlarini ushbu tizimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar samarali ishlay olish ko'nikma va tushunchalarini shakillantirish zarur.

Yuqori turuvchi davlat rahbarlari va ma'sul xodimlar tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalangan xolda samarali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim yo'nalishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lim

Taqrizchilar:

A.A.Abdullayev – TVChDPI maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri, dotsent.

X.R.Sanakulov –Nizomiy nomli TDPU dotsenti, p.f.n.

ISBN 978-9943-9170-7-1

© Nosirova R.X. va b., 2021
© «Malik print co», 2021

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI	5
§ 1. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim tizimi	5
§ 2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonuni	7
§ 3. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmon va qarorlarning mazmun mohiyati	21
II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI	29
§4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi	29
§ 5. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomi	40
§ 6. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat – xususiy sheriklik shakllarini joriy etishning maqsad va vazifalari	46
III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHGA OID ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR VA DASTURLAR BILAN ISHLASH	65
§ 7. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari	65
§ 8. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturining maqsad vazifalari va asosiy tamoyillari	69
§ 9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv	72
§ 10. Ilk qadam dasturida kun tartibning ifodalanishi	75
§ 11. Ilk qadam davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotini yosh guruhlaridagi faoliyatlar tahlili	77
§ 12. Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari	82
IV BOB. BOLALARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA QONUN HUJJATLARIDAN FOYDALANISH	98
§ 13. Oilaviy nodavlat maktabgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining asoslari	98
§14. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashning mazmuni va mohiyati	108
§ 15. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kuzatuv kengashini tashkil etish va uning samarali faoliyat olib borishini tashkil etish	114
MAKTABGACHA TA'LIMDA ME'YORIY ASOSLAR FANI BO'YICHA IZOHLI LUG'AT	123
ADABIYOTLAR	127

KIRISH

Har bir sohaning jadal rivojlanishi, uning huquqiy bazasining nechog'lik mustahkam va mukammalligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababdan ham davlatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazasini yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'z navbatida, maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir soha xodimi samarali ish faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun davlatimizda sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi lozim.

Shu sababdan ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2017 yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni, 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-son qarori, 2018 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori, 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, 2018 yil 30 iyulda "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida"gi 595-sonli qarori, 2018 yil 22 noyabrda "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 944-son qarori, 2018 yil 8 dekabrda "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 999-son qarori, 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarorlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi.

«Maktabgacha ta'limda me'yoriy asoslar» fani Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi va takomillashtirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar asosida samarali ish faoliyatini tashkil etish ko'zda tutilgan. Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot rahbarlari, pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

I BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

§ 1. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'limi tizimi.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: Konstitutsiya, qonun, inson huquqi, farmon, farmoyish, buyruq, me'yoriy-huquqiy hujjat, konstitutsiyaviy huquq.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida jadal o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohani jadal rivojlanishi sohada yaratilgan huquqiy bazaning mukammalligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yilning 25 yanvar kuni Oliy Majlisga bildirgan murojaatnomasida: "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi"-deya e'tirof etdi¹.

Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi printsipligiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritish, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz shart..

Davlatimizda maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha qisqa davr ichida huquqiy baza yaratilib, sohaning rivojlanishiga shart-sharoitlar hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Me'yoriy-huquqiy hujjat deb me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga murojaatnomasi - Toshkent, 2020 yil, 25 yanvar

yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va

farmoyishlari;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
 6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
 7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.
- Me'yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

Turli me'yoriy - huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Me'yoriy - huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.

Me'yoriy - huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalarini amal qiladi.

Agar me'yoriy - huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo'mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan me'yoriy - huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- ta'lim berishning muqobil shakllari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqomi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi turlar bo'yicha tashkil etiladi:

- umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo'nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarida, shuningdek inklyuziv guruhlarida birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turlarda ham tashkil etilishi mumkin.

§ 2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun" tasdiqlangan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan.